YENGIL SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL MODELLARI

Eshmatov Bahodir Eliyevich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Matematika” kafedrasi mudiri, prof. v.b.
Eshonqulov Javohir Sobirovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Matematika” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya. Bugungi kunda yengil sanoat tarmoqlari global miqyosida o‘ziga xos ravishda rivojlanmoqda. Bu ishda, yengil sanoat korxonalarining rivojlanishi tarmoqlar bo‘yicha olib qaralgan. Tarmoqlar kesimida dunyo mamlakatlarining rivojlanishi yirik uchta mintaqaga ajratilib, tadqiqot jarayoni ilmiy manbalarga asoslangan holda o‘rganilgan va rivojlanishning global modellari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: yengil sanoat, Osiyo mintaqasi, Yevropa Ittifoqi mintaqasi, G‘arbiy yarimshar mintaqasi, Global iqtisodiy o‘sish, to‘qimachilik eksporti, moda brendi, eksport.

Аннотация. В настоящее время отрасли легкой промышленности развиваются по-своему в мировом масштабе. В данной работе развитие предприятий легкой промышленности рассматривалось по отраслям. В разделе сетей развитие стран мира разделено на три крупных региона и на основе изученных в ходе исследования научных источников показаны глобальные модели развития.

Ключевые слова: легкая промышленность, Азиатский регион, регион Европейского Союза, регион Западного полушария, Глобальный экономический рост, экспорт текстиля, модный бренд, экспорт.

Abstract. Currently, the branches of light industry are developing in their own way on a global scale. In this work, the development of light industry enterprises was considered by branches. In the network section, the development of countries of the world is divided into three

large regions and, based on the scientific sources studied during the study, global development models are shown.

Keywords: light industry, Asian region, European Union region, Western Hemisphere region, Global economic growth, textile export, fashion brand, export.

Yengil sanoat tarmog‘ining rivojlanishi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini barqarorlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omildir. Mazkur tarmoq jahon mamlakatlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan diplomatik munosabatlarning shakllanishida ham katta ta’sirga ega. Shuningdek, tarmoq ahamiyatini mintaqaviy olib qaralganda ham tarmoq kesimida ular dunyo mamlakatlarining uchta yirik mintaqasini ajratib beradi. Bularga Osiyo mintaqasi, Yevropa Ittifoqi hamda G‘arbiy yarimshar mintaqasi kiradi. Jahon iqtisodiyoti holati tahlilini va prognozini yurituvchi tashkilotlar tomonidan tarmoq korxonalari o‘rtasidagi raqobat muhiti, mintaqa, mamlakat, hududlar hamda korxonalar kesimida baholanadi. Mazkur holatlar tarmoq ishlab chiqarish hajmining miqdoriy salmoqqa egaligi va tarmoq bozorining ahamiyati yuqoriligidan kelib chiqadi.

Jahonda to‘qimachilik korxonalarining mahsulot bozori hajmi 2022-yilda 1 trillion AQSh dollaridan ortib ketdi. 2016-yilda bu ko‘rsatkich 748,1 milliard dollarni tashkil etgani holda o‘sish so‘nggi 6 yilda 39 foizni yoki 1,39 barobarni tashkil qilmoqda. Bunda jami 100 foizlik hajmning 81,9 foizi gazlama va 18,1 foizi ip-kalava mahsulotlariga to‘g‘ri keladi. 2016-yilga nisbatan gazlama bozori hajmining ulushi 2022-yilga kelib 1,8 foizga kamayishi kuzatilgan. 2012-2015-yillar davomida bozorning yillik o‘sish sur’ati 2,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-2022-yillar davomida o‘rtacha o‘sish sur’ati 5,6 foizni tashkil qiladi. 2016 yilda xalqaro to‘qimachilik bozori hajmidagi ulushi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi korxonalariniki 59,6 foizini, Yevropa korxonalariniki 19,1 foizni, AQSh korxonalariniki esa 10,8 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda, 57,9 foiz, 20,3 foiz, 10,5 foizga teng bo‘ldi.[97]

Jahon kiyim-kechak ishlab chiqarish bozorining hajmi 2022-yilda 1103,5 milliard AQSh dollarini tashkil qilib, 2016-yilga (785,9 milliard AQSh dollari) nisbatan 1,4 baraborga oshdi. Tarmoq bozorining 2012-2016-yillar davomida o‘rtacha o‘sish sur’ati 4,4% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-2022-yillar davomida bu ko‘rsatkich 5,8 foizni tashkil qiladi. 2016-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bozor hajmining 61% ni, Yevropa esa 15,2% ni tashkil etdi. 2022-yilga kelib 2016-yilga nisbatan Osiyo-Tinch okeani mintaqasining bozor hajmidagi ulushi 1,1 foizga oshdi. Yevropa mamlakatlari kiyim-kechak ishlab chiqarish korxonalari ulushi esa 0,3 foizga kamaydi[98].

2022-yilda jahon chakana kiyim-kechak bozori hajmi 1852,6 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 2017-yilga (1414,1 mlrd AQSh dollari) nisbatan 31 foizga oshdi. 2013-2017-yillar oralig‘ida bozorning yillik o‘sish sur’ati 4,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-2022-yillar oralig‘ida 5,2 foizni tashkil etdi. Xususan, chakana kiyim-kechak bozorda ayollar kiyimi 52,6 foiz, erkaklar kiyimi 31,3 foizi va bolalar kiyimi 16,1 foiz ulushga ega[99]. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi 2022-yilda jahon kiyim-kechak chakana bozori hajmidagi 39,5 foiz ulush bilan yetakchilik qilmoqda, keyingi o‘rinda Yevropa mamlakatlari 29,2 foiz hamda AQSh 25,8 foizlik ulushga ega.

Ma’lum bir mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan iqtisodiyot tarmog‘ining rivojlanganlik darajasi bo‘yicha mamlakatlar reytingini ularning eksport salohiyati bo‘yicha baholash usuli keng qo‘llaniladi. Xususan, IMF (World Economic Outlook ma’lumotlar bazasi), OECD (Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar), UNIDO (Milliy hisoblar statistikasi ma’lumotlar bazasi), WTO (Xalqaro savdo tashkiloti) va WDI (Jahon banki, Jahon taraqqiyoti ko‘rsatkichlari) ma’lumotlar bazasida buni kuzatish mumkin[100].

Jahonda to‘qimachilik sanoati mahsuloti eksportida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport

---

97 https://shenglufashion.com/2018/12/18/market-size-of-the-global-textile-and-apparel-industry-2016-to-2021-2022/ Global Textile & Apparel Market Size: 2016 to 2021/2022 / Sheng L.

98 https://shenglufashion.com/2021/08/04/wto-reports-world-textiles-and-apparel-trade-in-2020/

99 https://shenglufashion.com/2021/12/27/statistics-global-apparel-market-2021-2026/

100 World Trade Statistical Review 2022 / Composition, definitions & methodology / World Trade Organization https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/wtsr_2022_e.pdf /

hajmi 147,8 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 43,6 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 1,5 foiz), Yevropa Ittifoqi (eksport hajmi 71,5 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 21,1 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati -2,9 foiz), Hindiston (eksport hajmi 19,4 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 7,4 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati -12,5 foiz), Turkiya (eksport hajmi 14,6 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 5,7 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati -3,8 foiz), AQSh (eksport hajmi 13,8 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 4,3 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 5,0 foiz), Vetnam (eksport hajmi 10,8 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 4,1 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati -5,7 foiz), Pokiston (eksport hajmi 8,7 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 3,2 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 5,4 foiz), Tayvan (eksport hajmi 8,3 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 2,6 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati -2,4 foiz), Janubiy Koreya (eksport hajmi 8,3 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 2,5 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati -4,6 foiz), Yaponiya (eksport hajmi 6,0 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 2,4 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati -3,9 foiz) mamalakatlari dastlabki o‘ntalikni tashkil etadi. Shuningdek, 2022-yil kiyim-kechak eksportida birinchi o‘ntalik quyidagicha taqsimlangan: Xitoy (eksport hajmi 182,4 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 31,7 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 3,6 foiz), Yevropa Ittifoqi (eksport hajmi 156,4 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 27,1 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 3,6 foiz), Bangladesh (eksport hajmi 45,3 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 7,9 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 26,6 foiz), Vetnam (eksport hajmi 35,3 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 6,1 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati -13,1 foiz), Turkiya (eksport hajmi 19,9 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 3,5 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 6,3 foiz), Hindiston (eksport hajmi 17,7 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 3,1 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 9,7 foiz), Indoneziya (eksport hajmi 10,1 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 1,7 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 7,8 foiz), Kambodja (eksport hajmi 9,1 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 1,6 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 12,1 foiz), Pokiston (eksport hajmi 8,9 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 1,5 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 4,9 foiz), AQSh (eksport hajmi 7,2 mlrd AQSh dollar, bozordagi ulushi 4,3 foiz, 2022-yilda o‘sish sur’ati 5,0 foiz).

Bugungi kunda yengil sanoat tarmog‘ida global miqyosida o‘ziga xos rivojlanish jarayoni kechmoqda. Dalavera universiteti professori Shen Luning taqdqiqotlari[101] natijasida olgan xulosalariga ko‘ra jahon yengil sanoat tarmog‘i 2020-yilda pandemiya ta’sirida jahon iqtisodiyotida kuzatilgan sekinlashish va yengil sanoat korxonalarining asosan Xitoy bilan bog‘liq ortib borayotgan geosiyosiy taranglik sharoitida oldingi davrlardagidan farqli rivojlanish yo‘nalishlariga ega bo‘lishi zarur. Mazkur zaruriyat yana boshqa bir omillar ta’siri ostida yuz bermoqda. Tadqiqotimiz jarayonida o‘rganilgan ilmiy manbalarga asoslanganda dunyo miqyosida yengil sanoat rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni quyidagicha keltirib o‘tish mumkin.

1) Global iqtisodiy o‘sishning sekinlashishi va asosiy kiyim-kechak import bozorlarida, xususan, rivojlangan mamlakatlardagi yuqori inflyatsiya darajasi iste’molchilarning xarajat taqsimotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi talabning pasayishiga olib keldi;

2) Global to‘qimachilik eksporti 2022-yilda 4,2 foizga qisqarib, jami 339 milliard dollarni tashkil etib, ko‘pgina sanoat tarmoqlaridan ortda qoldi[102]. Mazkur holat to‘qimachilik va tikuvchilik zanjir tizimida tarmoq xomashyosiga talab sezilarli darajada kamayishi bilan izohlanadi.

3) Moda brendi daromadining pasayishi. Moda brendlarining 37 foizi savdo o‘sishidan ko‘ra xarajatlarni kamaytirishga, ularning 60 foizdan ortig‘i inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun shartnomalarni qayta ko‘rib chiqishga e’tibor qaratmoqda[103].

Jahonda yengil sanoatni rivojlantirishning modellari hududiy ko‘lamiga ko‘ra mintaqaviy hamda mamlakat kesimida farqlanadi. Shu o‘rinda quyidagi modelni ko‘rib o‘tamiz.

---

[101] Lu, Sheng (2023).Key trends to watch as world clothing trade moves from China to wider Asia in 2023. / https://www.just-style.com/features/key-trends-to-watch-as-world-clothing-trade-moves-from-china-to-wider-asia-in-2023/?cf-view

[102] https://shenglufashion.com/2023/08/14/wto-reports-world-textiles-and-clothing-trade-in-2022/

[103] 1) WTO hisoboti: Textile and Apparel Industry Around the World. The changing face of textiles and apparel “Made in Asia” (updated February 2022) / https://www.wto.org/english/tratop_e/texti_e/texti_e.htm

Model. Mintaqaviy ta’minot zanjirini asosiy xususiyatga aylantirish modeli. So‘nggi 2000-2022 yillikda yengil sanoat tarmog‘ida mintaqaviy ta’minot zanjiri global to‘qimachilik va tikuvchilik savdosining asosiy xususiyatiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, eksport yo‘nalishida mazkur xususiyat barqaror rivojlanib kelmoqda. Buni shu davr oralig‘idagi tendensiyadan ko‘rish mumkin va bunda mintaqalar 3 ta yirik hududni tashkil etadi. 1-mintaqa – bu shimoliy, sharqiy, janubiy, markaziy va asosiy G‘arbiy Osiyo mamlakatlarini, 2-mintaqa Yevropa Ittifoqiga a’zo mamalakatlarni, 3-mintaqa – G‘arbiy yarimshar mintaqasi bo‘lib, Shimoliy va Janubiy Amerika va uning atrofidagi Afrika, Yevropa, Antarktida va Osiyoning bir qismini ham o‘z ichiga oladi (WH-Western Hemisphere)[104].

Mazkur modelning vujudga kelishiga yengil sanoat global iqtisodiyot tarmog‘i sifatida e’tirof etilsa-da, biroq to‘qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlarining global savdosi ichki mintaqalanish xususiyatga kuchli bog‘liqligi sabab bo‘ldi. Mintaqaviy bog‘liqlik modelida 3 ta mintaqaviy savdo oqimi katta xarakterga ega bo‘lib, yengil sanoatning rivojlanishida muhim jihat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Eshonkulov, J. S. (2021). Methodology Of Application Of The Simplex Method In The Optimal Development Of Industrial Enterprises. The American Journal of Applied sciences, 3(10), 9-14.

2. Rakhimov, A. N., & Eshonkulov, J. S. (2022). Improving the mechanism of increasing the economic power of industrial enterprises on the base of econometric models. Экономика и социум, (10-1 (101)), 145-153.

3. Рахимов, А., & Эшонкулов, Ж. (2022). Саноат корхоналарида ишлаб чиқаришнинг иқтисодий қувватини ошириш механизми. Экономика и образование, 23(6), 390-395.

4. Eshonkulov , J. . (2023). Improving the priority factors assessment system of the territorial development of light industry. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 2(18), 197–200.